

O'ZBEKISTONNING TRANSPORTI, TRANZIT SAVDO SALOHİYATINI YUKSALTIRISHNING GEOGRAFIK MASALALARI

*Kamolova Durdona Shamsiddin qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti
“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
yo`nalishi 2-bosqich talabasi,*

*Ilmiy rahbar: Sarikulov Mirkomil Olimovich
Andijon davlat pedagogika instituti
“Tabiiy fanlar” kafedrasi o`qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning transporti, transit savdodagi o'rni haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari o'zbekistonning iqtisodiyotini rivojlantirish borasida bir nechta takliflar keltirilgan. Misol uchun logistika markazlarini tashkil qilish takliflari ham ushbu maqolada keltirilgan.

Kalit so'zlar. “Uz DaewooAvto” korxonasi, tranzit, logistika, eksport, mehmonxona, iqtisod, turizm, rekreatsiya, elektron transport, magistral.

Annotation. This article provides information about Uzbekistan's role in transport and transit trade. In addition, there are several proposals for the development of the economy of Uzbekistan. For example, proposals for the organization of logistics centers are also presented in this article.

Key words. "Uz DaewooAvto" enterprise, transit, logistics, export, hotel, economy, tourism, recreation, electronic transport, highway.

Аннотация. В данной статье представлена информация о роли Узбекистана в транспортной и транзитной торговле. Кроме того, есть несколько предложений по развитию экономики Узбекистана. Например, в этой статье также представлены предложения по организации логистических центров.

Ключевые слова. Предприятие "Uz DaewooAvto", транзит, логистика, экспорт, гостиница, экономика, туризм, отдых, электронный транспорт, шоссе.

Asosiy qism. Dunyodagi har bir mamlakatni iqtisodiy salohiyatini uning

transport sohasi belgilab beradi. Albatta O'zbekistonda ham transport sohasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Yurtimizda aynan bu soha 1990-yildan rivojlana boshlagan. 2000-yilga kelib esa bu sohaga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Bu sohaga bir qancha katta o'zgartirishlar kiritildi. Bunga misol qilib temiryo'l transportidagi o'zgarishni aytish mumkin, yani Toshkent-Samarqand tezyurar temir yo'lini qurilishidir. O'zbekistonda temir yo'llar qo'shni mamlakatlardagiga qaraganda texnik jihatdan va zamonaviylik jihatidan ham birmuncha oldinda turadi. Temiryo'l transporti-yuk va yo'lovchilarni lokomotiv va motorvagonlar vositasida temiryo'l bo'ylab tashiydigan transport turi hisoblanadi. Yurtimizdagi bir qancha temiryo'llar tekislik va tog' oraliqlaridan o'tgan. Birgina Angren-Pop va G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on kabi temiryo'llar tog' oralig'idan o'tgan. Bu temiryo'l liniyalarini qurish orqali Toshkent viloyatini Surxondaryo va Farg'ona vodiysi bilan bog'lovchi temiryo'llarni bir necha yuz kilometr masofaga qisqarishiga erishildi. Bunday temiryo'llarni sonini oshirish kerak. Tog' oralig'iga bunday temiryo'llarni o'tkazish bir viloyatdan ikkinchi viloyatga bundan tashqari chet mamlakatlarga tez yetib borish imkonini beradi. Yurtimizda temiryo'llarni ko'paytirish bilan ham iqtisodiyotimiz biirmuncha yuksalishi mumkin. Chunki temiryo'llar xar qanday noqulay ob-xavo sharoitida xam ishlayveradi, uning ish samaradorligi yuqori hisoblanadi. So'ngi yillarda mamlakatimizdagi temiryo'l transportining teplovozlardan elektrovozlarga aylantirish xam temiryo'l transportidagi islohotlarning olib borilayotganligidan dalolat beradi. Jahonning barcha rivojlangan davlatlarida avtomobil transporti yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Avtomobil transporti yuklarni bevosita istemolchiga yetkazib beradi, shu xususiyati bilan avtomobil transporti qulay hisoblanadi. "O'zbekiston avtomobilsozlik sanoati-Vatanimiz mustaqilligining muhim yutuqlaridan biri. Bizning mustaqil davlatimiz rivojlanish yo'lida bormoqda. Bizning ilk muvaffaqiyatlarimizdan biri-iqtisodiyotimiz uchun mutlaqo yangi soha avtomobilsozlik sohasining tug'ulishi bo'ldi" dep aytgan edi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov. Avtomobil sanoati markazi deganda birgina Asaka shahri tushunilar edi. Hozirda esa Toshkent, Samarqand, Xorazm viloyatlari ham bu sanoatning yirik

markazlariga aylantirilgan. Bu viloyatlarda zavod va korxonalar avtomobillarning 100 dan ortiq turini ishlab chiqarmoqda. Avtomobilsozlik tarmog'iga 1996-yil 19-iyul kuni Asakada "uz DaewoAvto" qo'shma korxonasini ishga tushirilishi bilan asos solindi. Asaka avtomobil zavodi chet eldagi bir nechta avtomobil zavodi bilan raqobatlasha oladi. Bundan tashqari O'zbekistonning birinchi prezidenti tashabbusi bilan 2012-yil 22-noyabrdagi "2013-2015-yillarda Xorazm viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi 1856-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2013-yil 21-fevraldagi "Xorazm viloyatida "Damas" rusumli yengil avtomobillarni ishlab chiqarishni tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 51-sonli qaroriga muvofiq viloyatda "GM Uzbekistan" aksiyadorlik jamiyatining Xorazm viloyat filiali-"Xorazm avto" zavodi ishga tushirildi.

Yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy kuchi yoshlar. Bu borada yoshlarga barcha imkoniyatlar yaratilgan. Malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yetarli darajada. Buni birgina avtomobil sanoatida ham ko'rish mumkin. Chunki bu soha uchun yetuk va malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish masalasiga katta e'tibor qaratilgan. Andijon Mashinasozlik instituti, Toshkent shaxridagi Turon politexnika universiteti kabi oliy o'quv yurtlari aynan manashu soha uchun malakali kadrlar yetkazib bermoqda. Avtomobil sanoatini rivojlantirish muhim masala. Lekin ekolog'iyani buzilishiga ham aynan sanoat korxonalari katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu soha rivojlanishi bilan ularga xizmat ko'rsatuvchi yonilg'i quyish shahobchalari soni ham ortadi. Ekologiyaga juda ko'p miqdorda zararli moddalar tarqaydi. Buni oldini olish maqsadida yurtimizda elektromobillar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni tashkil qilish kerak. Chet el mamlakatlari bilan hamkorlikda elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish ekologiyani bir tomonlama buzilishini oldini olgan bo'lar edi. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda tranzit savdoga ham katta e'tibor berish lozim. Tranzit- yuk yoki yo'lovchilarning oraliqdagi stansiya, viloyat, davlat orqali o'tishi.

Tranzit savdoda katta daromad tushishi ham mamlakat iqtisodiyoti uchun ham, eksport va import masalasi uchun ham muhim. Yurtimiz iqtisodiyoti uchun ham tranzit savdo muhim. Xitoy mamlakatini Yevropa mamlakatlari bilan bog'lash uchun

o'zbekiston buyuk ipak yo'lining ustida joylashganligi tranzit yuk va yo'lovchilarni tashish uchun qulay geografik o'ringa ega ekanligidan dalolat beradi. Bu ham iqtisodiyotimiz rivojiga katta hissa qo'shadi. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishni o'ziga xos bir tomoni rekreatsion hududlardan foydalanish. Bunday geografik hududlardan foydalanish turizmni jadal rivojlanishiga yordam beradi. Rekreatsiya asosan ikki xil bo'ladi: Tabiiy rekreatsiya, tarixiy-madaniy rekreatsiya. Tabiiy rekreatsiyaga tabiiy geografik obyektlar, sharsharalar, g'orlar, buloqlar, so'lim tog' yonbag'irlari kiradi. Tarixiy-madaniy rekreatsiyaga qadimgi shaharlar, maqbaralar, qal'alar, me'morchilik binolari, muzeylar kiradi. O'zbekistonda rekreatsiyani ikkala turi ham mavjud.

Tarixiy-madaniy rekreatsion resurslar mamlakatimizda juda ko'p bo'lib jumladan: Toshkent, Samarqand, Xorazm, Navoiy, Surxondaryo viloyatlari va Qo'qon shahri kabi hududlarda mavjud. Yurtimizni tog'li hudud ekanligini hisobga olsak tabiiy rekreatsiya obyektlariga boy. Faqatgina bundan foydalanishni takomillashtirish lozim. Tabiiy rekreatsiya obyektlariga boy hududlar asosan mamlakatimizning sharqiy va shimoliy-sharqiy tog'li hududlarda mavjud. Misol uchun Toshkent viloyatidagi "Chimyon", Farg'ona vodiysidagi "Shohimardon", "Chodak", "Bog'i shamol", "Xonobod", "Chortoq". Mana shunday hududlarni yanada rivojlantirib, bunday maftunkor joylarga dam olish uylari, mehmonhonalar, sanatoriyalar qurilishini ko'paytirish lozim. Chet ellik turistlarni bunday hududlarga tashrifini ko'paytirish uchun bunday tog'li hududlarga yevropa talablariga mos keladigon turbazalar qurish kerak. Rekreatsion resurslar mavjud bo'lgan hududlarning yanada maftunkorligini oshirish orqali chet eldagi turistik tashkilotlarning e'tiborini jalb qilish mumkin, o'z navbatida ichki turizm xam rivojlandi. Turizm sohasi rivojlanishi bilan mamlakat iqtisodiyoti ham jadallik bilan rivojlanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda logistika markazlarini tashkil qilishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Logistika-sanoat korxonalariga xomashyo yetkazib berish jarayonida amalga oshiriladigan transport, omborxonalar va boshqa moddiy va nomoddiy operatsiyalarni rejalashtirish va boshqarish. Logistika murakkab ishlab chiqarish tizimlarini ratsionalizatsiya qilishga imkon beradi. Logitikaning maqsadi- tovarni istemolchiga o'z vaqtida kerakli

manzilga yetkazish, saqlash, qadoqlash moddiy resurslarning minimal qiymatida qabul qilinishini ta'minlashdir.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda mamlakatimizni buyuk ipak yo'li ustida joylashganligi ko'plab logistika markazlarini tashkil qilish imkonini beradi. Har bir mamlakat taraqqiyotida uning geografik joylashuvi muhim o'rin tutadi. Bu, ayniqsa, chet davlatlar bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yish, logistikani rivojlantirishda ko'zga yaqqol tashlanadi. Biroq bugungi kunda dunyoning 44 mamlakati to'g'ridan-to'g'ri dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas. Bunday sharoitda ularning o'zaro savdo aloqalari rivojlanishi ko'p jihatdan tranzit salohiyati, ochiq va yaxshi qo'shnichilik munosabatining yo'lga qo'yilgani, shuningdek, siyosiy xohishiga bog'liqdir. Rekreatsion resurslarining mavjudligi, avtomobil zavodlarining ko'payishi, Avtomobil transportining rivojlanishi, ya'ni temiryo'l transporti liniyalarining ishga tushirilishi va ularning elektrlashtirilishi O'zbekiston iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatishi bilan birga xududning intensiv rivojlanishi uchun samarali yo'l hisoblanadi. Bo'sh mehnatga yaroqli aholi ish bilan taminlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. "O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" 8-sinf darslik. "Sharq" Nashriyot-Matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Payoz Musayev, Jahongir Musayev. Toshkent 2019.
2. (<https://fayllar.org/1- O'zbekistonda-yoshlarga oid-davlat-siyosatini -amalga-oshirish.html>)
3. (<https://fayllar.org/mashinasozlik-tehnologiyasi-fakulteti-mashinasozlik-tehnologiy.html>)
4. (<https://uz.wikipedia.org/w/index.php?>)
5. "Logistika"- o'quv qo'llanma. Tairova.M.M. Abdullayev A.J. Buxoro-2020.